

XXI – ASRDA INTERNET TARMOQLARIDAGI TARIXIY MA'LUMOT VA MANBALARNING NOTO'GRI TALQIN ETILISHI

Ro'ziyev Og'abek Nizomiddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI -asrdagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan internet manbalarida ishonchisiz, hamda noto'g'ri bo'lgan malumotlarining ko'pligi hamda ulardan foydalanish oqibatida noto'g'ri fikrlarni ko'payishi shu bilan birgalikda internet tarixi hamda ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Internet, manbalar, axborot, ishonchli malumotlar, global

Bugungi kunda hayotimizning deyarli barcha sohalarini, hususan ta'limning rivojlanishini “media”(inglizcha “education”, lotincha-omil) ya'ni, televidenie, radio, kino, audio, video, kompyuter axborot tizimlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda texnika rivojlanib borayotgan jamiyatni axborotlashtirish jarayoni, turli ta'lim dargohlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarining kompyuter texnikasi va internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanish sohasida yetarli darajada bilim olishlarini taqozo etadi. Ular axborot turlari, elektron o'quv qo'llanmalari, multimediya va masofadan turib o'qitish uslublari orqali mutaxassisligiga oid amaliy masalalarni hal qilish va o'zlari qiziqtirgan ma'lumotlarni ola bilishlari, ularni saqlash va uzatish ko'nikmalarini hosil qilgan bo'lishlari kerak.

“Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnik imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan kechmoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyat yaratadigan jarayondir”.¹ Internetdagi ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun yoshlarni tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, dalillarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanihga o'rgatish, ayniqsa muhim ahamiyatga ega va har bir ota- ona nazoratga olishi lozim. Chunki yoshlarimizning kamol topishi va komil inson bo'lib shakllanishi kelajakda davlatimizning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Ahloqiy tarbiya – shaxs shakllanishining ko'pqirrali jarayonining muhim bir tomoni hisoblanib, uning natijasida axloqiy qadriyatlar o'zlashtiriladi, axloqiy fazilatlar, axloq-odob tamoyillari, me'yor va qoidalari asosida

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2000 – Б. 23.

yashash qobiliyatlari ishlab chiqiladi. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi. Internet ko'plab lokal, mintaqaviy, milliy va xalqaro tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Davlat va shaxsiy tashkilotlar ham internetdagi o'z tarmoqlariga egalar. Ushbu tarmoqlar, shu bilan birga telefon kompaniyalari, kabelli va sun'iy yo'ldosh kompaniyalari va hukumat barcha-barchasi internetning strukturalararo bog'lanishiga hissa qo'shadi.

Kompyuter va qurilmalar internet bilan serverlardan, mijozlardan va turli simli va simsiz media yuboruvchilardan foydalangan holda ma'lumotlarni dunyo bo'ylab tarqatish uchun birga ishlaydi. Internetda, sizning yoki kompyuter mobil qurilmangiz mijoz bo'lib ma'lumotlar va serverning turli tuman malumotlardan foydalanadi. Simli aloqa mediasi telefon liniyasi, o'ziga moyil kabel vs fiber optic kabelni qamrab oladi. Simsiz aloqa mediasi radio to'lqinlar va sun'iy yo'ldosh signallarini o'z ichiga oladi. Internetning ichki tizimi transport tizimidek ishlaydi. Hozirgi paytda davlatlar aro havo yo'llari katta shaharlarni bog'lab ularga ko'plab avtomobil yo'llarini olib kelganidek, bir qancha aloqa medialari katta miqdorda harakat qatnovlarini, yoki aloqa harakatlarini internetda tashimoqdalar.

Tarmoq qatnovining ushbu asosiy olib keluvchilari internetning muhim tayanchi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda hozirgi kunda uchun internet manbalaridan to'g'ri foydalanish uchun saytlarning nomlari bilan tanishib o'tishimiz mumkin:

- .com Tijorat tashkilotlari, korxonalar va kompaniyalar
- .edu Ta'lim institutlari
- .gov Hukumat agentliklari
- .mil Xalqaro tashkilotlar
- .net Tarmoq provayderlari yoki tijorat kompaniyalari
- .org Notijorat tashkilotlar

Yani biz bunda ko'rishimiz mumkinki saytalardan to'g'ri va aniq foydalanishimiz uchun bularni bilib olishimiz lozim. Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internet - bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab Web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Web-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi (eskirgan) axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p foydalaniladigan Web-sahifalar adreslari maxsus ma'lumotnomalarda chop etib turiladi. Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi.

Chunki Internetdagi barcha Web-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi. Bu kitob chop etib tugatilmasidan Internetdagi bir qancha adreslar o'zgarishi aniq. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi. Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin.

Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi. Axborotlarni qidirish. Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumla mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Va nihoyat ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirish. Ko'rib o'tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni uning mavzusi hamda tarkibidagi so'z yoki jumla bo'yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog'ida ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ta'kidlab o'tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo'shimcha usullari bo'yicha qidiruvni taqdim etadi, yani biz bunda ma'lumotlarni saralashda va to'g'ri bo'lgan ma'lumotlarni topishga imkon beradi, bular:

- Ma'lumotlarni uning tili bo'yicha qidiruv;
- Ma'lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo'yicha qidiruv;
- Ma'lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo'yicha qidiruv;
- Ma'lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidiruv;
- Ma'lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo'yicha qidiruv;
- Ma'lumotlarni xavfsiz qidiruv.

1991-yil CERN Butunjahon o'rgimchak to'ri loyihasini e'lon qildi. Bu voqea Tim Berners-Lee tomonidan HTML, HTTPlarning yaratilishi va CERNda dastlabki veb-sahifalarni paydo bo'lishidan 2 yil keyin sodir bo'ldi. 1993-yil birinchi internet brauzer Mosaicning 1.0 versiyasi paydo bo'ldi va 1994-yilda internetga ommaviy qiziqish tug'ila boshladi. 1996 yildan internet so'zidan keng foydalana boshlandi, biroq u asosan, Butunjahon o'rgimchak to'rini anglatadi.

Shu bilan birga internet 10 yil ichida juda tez tarqalib ketdi, uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, birovning mulki emasligi, markaziy boshqaruvning yoʻqligi uni organik rivojlanishiga sabab boʻldi. Hozirda internet insoniyatning eng katta texnologik yutuqlaridan biri sifatida tan olindi. Internetning butun dunyoni qamrab olishi quyidagi tarmoqlarning qoʻshilishi hisobiga boʻldi:

- EUNet - Evropadagi UNIX mashinalari tarmogʻi (1982 yil)
- EARN – Oʻquv va ilmiy - tekshirish muassasalarining tarmogʻi (1983 yil)
- JUNET - Yaponiyadagi UNIX mashinalarining tarmogʻi (1984 yil)
- JANET - Buyuk Britaniyaning birlashgan akademik tarmogʻi (1984 yil)

Internetning 1990-yillardagi rivojlanishiga asosiy World Wide Webning (Butun Dunyo Tarmoqgʻi) tuzilishi boʻldi. 1990-yil noyabrda Yevropa atomni tekshirish markazi (CERN) xodimi Tim Berns - Li WWW tarmogʻining birinchi nusxasini yaratdi, lekin u 1992-yilgacha ishga tushirilmadi. 1993-yil sentyabrda birinchi ishlovchi Mosaic versiyasi ishlab chiqildi va axborot oqimi WWW boʻyicha 1% ni tashkil qildi. 1993-yil oktyabrda 200 ta WWW – server ishga tushirildi. Keyingi yillar Internet va WWW ning rivojlanishi yanada tezroq suratda boʻldi.

1999-2000 yillar. BMTning Oʻzbekistonda Internet tarmogʻini rivojlantirish boʻyicha yangi loyihasi – UZB/99/016 (UzSciNet) ish boshladi. Bu gal Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshida akademik tarmoq yaratish boʻyicha ish boshlandi. Internet bozorida qator oʻzining mustaqil (asosan sunʼiy yoʻldosh) kanallariga ega boʻlgan provayderlar faoliyati kuzatildi. Ilk Cisco tarmoq akademiyasi ishga tushdi.² 2010 yilda Oʻzbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 3,2 millionga oshib, 2002 yil bilan solishtirganda oʻsish 23,8 %ni tashkil qiladi. Oʻzbekistonning barcha hududlarida Internet foydalanuvchilari soni muntazam oshib bormoqda va mamlakat aholisining 24 %i xalqaro tarmoqdan foydalanadi. 2010 yil soʻngida Internetdan foydalanuvchi davlat organlari soni 7643 taga yetdi. UZINFOCOM markazi tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarga koʻra, 2010 yilda «UZ» milliy domenidan roʻyxatdan oʻtgan faol domenlar miqdori 11 mingga yetgan. 2010 yilda TAS-IX da trafik hajmi 615025,32 GBaytga yetib, 2009 yilga nisbatan 314,8% ga oshgan. Biz bu maʼlumotlarni koʻrib xulosa qilishimiz mumkinki internet malumotlari juda koʻp va foydalanuvchilar soni ham, yildan yilga oʻrtib bormoqda. Biz tarix sohasi uchun kitoblar yoki maʼlumotlarni topishimizda ishonchli saytlardan olishimiz lozim. Biz uchun ishonchli saytlarni topishda birinchi navbatda bitta maʼlumotga tayanmasdan yoki wikipediya saytlaridan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Maʼlumotlar

² Shokirovna, I. F. (2022). TARIX FANLARINI OʻQITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN HAMKORLIK MEXANIZMLARINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI.

Academic research in educational sciences, 3(4), 1236-1244.

bazasi qidirganimizda tepada ko'rsatilgan ta'lim sohasiga doir saytlardan foydalanish lozim. Biz umumiy xolda internetni qo'yidagi imkoniyatlarga bo'lib olishimiz mumkin:

Axborotni o'qish va tarqatish.

- Ma'lumotni nomiga qarab tezda topish.
- Ma'lumot nusxasini ko'chirib olish.
- Xat almashish.
- Telekonferensiyalarda ishtirok etish.
- Muzokaralar olib borish.
- Muloqot qilish.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin, bugungi kunda ma'lumotlar bazasi ko'p bo'lgani hamda ularni o'zgartirish imkoni bo'lgani sabab birgina tarix uchun emas balki barcha fanlar uchun kerak bo'lgan malumot qidirganimizda ishonchli saytlarga murojat qilishimiz lozim. Bundan tashqari ilmiy maqola yoki nashriyot tomonidan tasdiqlangan kitoblardan foydalanish, ishonchli manba ekanligini tekshirib ko'rish, tarixiy hujjatlar yoki arxivning elektron saytlaridan foydalanish lozim. Bundan tashqari muhim omillardan yana biri tanqidiy fikrlash sababi malumotlarni tahlil qilgan holda boshqa malumotlardan ham qidirib ko'rish lozim. Ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilishga asosiy sabablardan biri noto'g'ri malumotlarni internet saytiga joylashtirishdan kelib chiqadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Bolkunov I. A. Elektron ta'lim: muammolar, istiqbollar, vazifalar // Tavricheskiy ilmiy kuzatuvchi. — 2016. — Nashr. 11-1 (16).
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2000 – Б. 23.
3. Муслимов Н., Сайфуров Д. Web технология асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. Тошкент. 2015.
4. Satunina A. E. Elektron ta'lim: ijobiy va salbiy tomonlari. // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari: jurnal. — 2006. –1-son. -S. 89-90.